



USLUBIYAT. NUTQ USLUBLARI TASNIFI

Fozilova Afruza Davlat qizi

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589133>

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada nutq uslublari haqida so'z yuritiladi. Tilimizda nutq uslublari qaysi paytda, qay holda qo'llanishi bilan bog'liq masalalar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Uslubiyat, nutq uslublari, so'zlashuv uslubi, publitsistik uslub, badiiy uslub, ilmiy uslub, rasmiy uslub, uslubiy xoslangan so'zlar, uslubiy betaraf so'zlar.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi nutq uslubi hisoblanadi. Nutq uslublari adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida qo'llanadigan ko'rinishidir.

O'zbek tilining nutq uslublarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi esa o'zbek tili uslubiyati yoki uslubshunoslik deyiladi.

So'zlar ma'lum nutq uslubiga xoslanish yoki xoslanmasligiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Uslubiy xoslangan so'zlar – ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadi. Masalan: binobarin, mazkur, dudoq, qaroq, nota kabi.

2. Uslubiy betaraf so'zlar – barcha uslublarda qo'llana oladi. Masalan: so'zlamoq, gapirmoq, uy, daftar va hokazolar. O'zbek tilining ichki tuzilishinigina o'rganish bizga bu til haqida to'la ma'lumotni bera olmaydi, chunki til birliklaridan qachon, qayerda, qanday vaziyatda foydalana bilish ham katta ahamiyatga ega. Masalan: muhtaram, qimmatli, aziz, singari so'zlarni ma'lum shaxs bildiruvchi so'zlarga faqat rasmiy, publitsistik uslublarda qo'shib ishlatsish mumkin: Muhtaram Solijon Soqiyevich! Qimmatli aka, aziz opajon kabi. Bunday birikmalarni yoningizda siz bilan oddiy holatda jonli muloqot qilib turgan kishiga qo'llay olmaysiz. Agar shunday birikmalarni qo'llasangiz, noqulay ahvolga tushasiz. Shuning uchun ham bunday vaziyatlarga tushib qolmaslikni inobatga olgan holda nutq uslublari quyidagicha tasniflanadi:

1. Publitsistik uslub
2. Ilmiy uslub
3. Rasmiy uslub



4. So'zlashuv uslubi
5. Badiiy uslub

Bulardan so'zlashuv uslubi og'zaki, qolganlari esa yozma va og'zaki nutqqa xosdir. Masalan, ilmiy asar yoki ilmiy ma'ruza matni yozma nutqqa, ilmiy ma'ruzaning o'zi esa og'zaki nutqqa xos. Shuningdek, badiiy uslubning ham og'zaki (xalq og'zaki ijodi) va yozma ko'rinishi mavjud.

SO'ZLASHUV USLUBI – kundalik hayotda, ko'cha-ko'yda, ish joylarida va boshqa joylarda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo'llanadigan nutq uslubi. Bu uslub adabiy va oddiy so'zlashuv uslubiga bo'linadi. Adabiy so'zlashuv uslubi ma'lum til me'yorlariga qat'iy amal qilingan, tartibga solingan uslubdir. Oddiy so'zlashuv uslubida esa so'zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib axborot uchun eng kerakli so'zlarnigina ishlataladi. Qolganlari nutqiy vaziyatdan bilinib turadi yoki imo-ishora va mimikalar bilan to'ldiriladi.

PUBLITSISTIK USLUB – ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, radio, televide niye) uslubi, Oliy Majlis yig'inlarida, turli xil anjumanlarda qo'llanadigan nutq uslubi. Publitsistika davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, talabalarga, tinglovchilarga gazeta-jurnal, radio, televide niye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta'sir etish bo'lib, soddalik, ta'sirchanlik, tushunarilik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilish, muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariga egadir.

BADIY USLUB – ma'lum bir voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalovchi va shu yo'l bilan tinglovchiga estetik ta'sir etuvchi nutq uslubi. Obrazlilik va estetik ta'sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir. Bu uslubda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olish bilan birga o'zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kunda iste'moldan chiqib ketgan tarixiy so'zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatalaveradi. Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida chegaralangan. Badiiy uslub, ulardan farqli ravishda, inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi.

ILMIY USLUB – daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon



qiluvchi uslub. U sof ilmiy uslub va ilmiy-ommabop uslublarga bo'linadi. Sof ilmiy uslub muayyan fan sohasidagi kishilar uchun mo'ljallanadi. Shu bois bu uslubda fan sohasiga doir atamalar keng qo'llanadi. Ilmiy-ommabop uslubda esa fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi. Shuning uchun bunday uslub publitsistik uslubga yaqinroq bo'ladi. Fan sohasiga doir atamalar qo'llanilsa ham, bu atamalar xalqqa tushunarli bo'lishi uchun izohlanadi. Ilmiy uslubda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'z va iboralar, shuningdek, qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi.

RASMIY USLUB – adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xos bo'lib, muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega nutq uslubi. Bu uslub huquiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlarida, ya'ni davlat arboblari o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda, idora, korxona, muassasalarning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog'oz singari ish yuritish qog'ozlarida qo'llaniladi. Bu uslubda tilning ikki vazifasi: axborot uzatish va da'vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. U har qandy tasviriy vositalardan, obrazlilikdan xoli bo'ladi. Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi, hujjatlar qisqa va aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslub ham o'z navbatida sof qonunchilik uslubi, idoraviy-devonxona uslubi, diplomatik uslublarga bo'linadi. Rasmiy uslub qat'iy qolip asosida bo'lib, hujjat matnining darak-axborot xarakterida bo'lishini, so'zlarning bir ma'noda ishlatalishini, badiiy-tasviriy vositalar bo'lmasligini, fe'lning majhullik va buyruq-istak shakllari, qo'shma gap turlarining keng qo'llanilishini talab qiladi, til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

Har bir nutq uslubi tilimizning naqadar boy va go'zal ekanligini anglatib turadi. Eng muhimi har qanday uslubda so'zlashishda ham nutq uslublari me'yorlariga va qoidalariiga amal qilish foydadan xoli emas.

Ушбу мақолада ўқув луғатларининг умумий луғатлардан нафақат ҳажми, балки ундаги сўзларнинг танланиш мезонлари, луғат қисмларининг таркиби, жойлашуви – мегаструктураси билан ҳам фарқланиши, синоним ўқув луғатлар луғат мақоласи



таркибида лексикографик пометалар (турли қисқартмалар, белгилар)га кам ўрин берилганлиги муҳокама қилинади.¹

This article is dedicated to the research of Adjusted meanings of Moral-spiritual concept defining units in the Uzbek language. And also analyzed the semantic analysis of grammatical shape lexemes of specialized meaning and provide a corresponding recommendation for lexicographical practice in the Uzbek language is one of the actual challenges of linguistics as today's challenge.²

Корпуз лингвистикасида семантик разметка, унинг теглар тизими, тег категориялари, семантик теглаш муаммолари, кўпмаънолилик ва омонимлик муаммосини ечиш масаласига оид қатор тадқиқотлар вужудга келган.³

The article discusses the research methods of Uzbek language syntax. In Uzbek linguistics, syntactic phenomena have been studied in detail since the 1930s, and several syntactic theories have emerged in this regard.⁴

The article examines the first dictionary in the Turkish language Mahmud Kashgaris "Devonu lugotit turk" in terms of a dictionary in accordance with the traditions of world lexicography and argues that it is the first appearance of modern complex dictionaries in the Turkish (Uzbek) language.⁵

Now studying scientific heritage, socio-political activities and acquaintance youth charity of our above-stated ancestors is considered one of the main urgent objectives of the modern intellectuals.⁶

¹ Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>

² Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.

³ Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гурӯҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.

⁴ Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.

⁵ Bakhriddinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.

⁶ Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.



This article covers the main place of small business and business in todays market economy. Including scientifically analyzed the development of small business and business, and the legal basis, at this time financially support small business and business, the latter is amended and the rules for this branch of national legislation are added.⁷

Мамлакатимиз тараққиётининг янги босқичида жамият ҳаётининг асосий негизи бўлмиш оилалар барқарор муҳитини мустаҳкамлаш ва бу масалаларда хотин-қизларнинг ўрни ва аҳамияти ошириш долзарб аҳамият касб этмоқда. Юртимиз аҳолисининг тенг ярмига яқинроғини ташкил этадиган хотин-қизлар жамиятнинг барча соҳаларида самарали фаолият юритмоқда.⁸

Badiiy adabiyotning qamrov darajasi keng sanaladi. Zero undagi janrlarning har biri insonning kamoloti uchun xizmat qiladi.⁹

Ushbu maqolada vatanparvarlik va millatparvarlik kabi axloqiy tushunchalar, hamda ularning mazmun mohiyati Somerset Moem qalamiga mansub bo'lgan "Bo'y sunmagan" ("The Unconquered") deb nomlangan hikoyaning syujeti va bosh qahramonlarning xarakterini tahlil qilish orqali olib beriladi¹⁰

The article examines the role of dictionaries and their content, and, in particular, defines the role of explanatory dictionaries, from their compilation to their semantic meaning. Examples of lexical units and their meanings are given. Attention is drawn to the structure of explanatory dictionaries as a constituent part of the dictionaries as a whole.¹¹

⁷ Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.

⁸ Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

⁹ Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>

¹⁰ Pusatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>

¹¹ Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.



In this article are given the importance, role, types of the family in modern society. Its development from ancient times till present is widely described in this article.¹²

The widespread introduction of new pedagogical technologies in teaching students of higher educational institutions and the effective use of innovative technologies are the main support for improving the quality of education.¹³

Adabiyotlar:

1. Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>
2. Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.
3. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гурӯҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.
4. Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.
5. Bakhridinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.
6. Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.
7. Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.

¹² Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.

¹³ Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* /ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.



8. Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

9. Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>

10. Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>

11. Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.

12. Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. European science review, (3-4), 69-72.

13. Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.